

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQUISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARINING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIYAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	222
I.R.Sabirjanova	
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY	228
Palvanbayev Umidbek Uktam o'g'li	
MINTAQAVIIY TURISTIK KLASTERLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELII	233
Kazokova Dilnoza Bobirovna	
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	238
G'iyosov Ilxom Karimovich	



O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI	246
Xaitova Gulmira Matsalayevna	
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	253
Sangirova Umida Ravshanovna	
МЕТОДЫ СИСТЕМ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	259
Н. М. Эргашева	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	265
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O'RNI.....	271
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТАДЖИКИСТАНА ЗА 35 ЛЕТ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ	276
Икромни Нуриддин Киём	
Раҳматзода Далер Талбак	
YANGI O'ZBEKISTONDA GILAMCHILIK SANOATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI	283
Farog'at Xo'jabekova	
MINTAQADA AGROTURIZMNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: XALQARO MODELLAR VA O'ZBEKISTON UCHUN INNOVATSION MEXANIZMLAR.....	288
Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li	
KICHIK BIZNESDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMI.....	294
Kabilova Shahnoza Jurayevna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH	301
Parpiyoyeva Lobar Abdikomilovna	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARNI MOLIYALASHTIRISHNING TAHLILI	308
Abduraxmanov Farrux Talipjanovich	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI TAHLILI	316
O'sarov Abdulla Davronqulovich	



TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI TAHLILI

O'sarov Abdulla Davronqulovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: abdullo@samdu.uz

ORCID: 0009-0001-6021-0128

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm sohasi barqaror rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va tarkibiy o'zgarishlari iqtisodiy jihatdan tadqiq etilgan. Turizm sohasining rivojlanish dinamikasi, turistlar oqimi, turizmga xos xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari, turizm infratuzilmasi hamda ichki turizm ko'rsatkichlaridagi tarkibiy siljishlar tizimli tahlil qilingan. Turizm sohasining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va institutsional omillarning o'zaro bog'liqligi asoslangan. Tahlil natijasida turizm sohasida miqdoriy o'sish bilan bir qatorda sifat va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish hamda davlat tomonidan tartibga solish vositalarini barqaror rivojlanish mezonlari asosida takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, barqaror rivojlanish, turizm sohasi, turistlar oqimi, turistik xizmatlar, tarkibiy o'zgarishlar, turizm infratuzilmasi, ichki turizm, davlat tomonidan tartibga solish, barqaror turizm.

Аннотация. В статье с экономической точки зрения исследованы современные тенденции и структурные изменения устойчивого развития сферы туризма в Узбекистане. Проведён системный анализ динамики развития туристической отрасли, туристских потоков, объёма производства характерных для туризма услуг, услуг по размещению и питанию, туристской инфраструктуры, а также структурных сдвигов в показателях внутреннего туризма. Обоснована взаимосвязь экономических, социальных, инфраструктурных и институциональных факторов, влияющих на устойчивое развитие сферы туризма. По результатам анализа обоснована необходимость обеспечения не только количественного роста, но и качественных и структурных преобразований в сфере туризма, эффективного использования туристского потенциала регионов, а также совершенствования инструментов государственного регулирования на основе критериев устойчивого развития.

Ключевые слова: туризм, устойчивое развитие, сфера туризма, туристские потоки, туристские услуги, структурные изменения, туристская инфраструктура, внутренний туризм, государственное регулирование, устойчивый туризм.

Abstract. This article examines, from an economic perspective, contemporary trends and structural changes in the sustainable development of the tourism sector in Uzbekistan. A systematic analysis is conducted of the dynamics of tourism development, tourist flows, the volume of tourism-specific services, accommodation and food services, tourism infrastructure, and structural shifts in domestic tourism indicators. The interrelationships among economic, social, infrastructural, and institutional factors affecting the sustainable development of the tourism sector are substantiated. Based on the analysis, the study highlights the need to ensure not only quantitative growth but also qualitative and structural transformations in the tourism sector, to make effective use of the tourism potential of the regions, and to improve government regulatory instruments in accordance with sustainable development criteria.

Keywords: tourism, sustainable development, tourism sector, tourist flows, tourism services, structural changes, tourism infrastructure, domestic tourism, government regulation, sustainable tourism.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida turizm sohasi iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, xizmatlar eksportini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda turizmni rivojlantirishning an'anaviy, asosan, miqdoriy o'sishga yo'naltirilgan modeli yetarli hisoblanmaydi. Turistlar oqimi va turistik xizmatlar hajmining ko'payishi iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda hududlarning



ijtimoiy manfaatlari, tabiiy va madaniy resurslardan oqilona foydalanish, infratuzilmaga tushadigan yuklama hamda turizm faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash masalalarini ham kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu nuqtayi nazardan, turizm sohasining barqaror rivojlanishini alohida ko'rsatkichlar o'sishi bilangina emas, balki uning tarkibida yuz berayotgan sifat o'zgarishlari bilan birgalikda baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanish turizmning iqtisodiy natijadorligi, ijtimoiy samarasi, hududiy mutanosibli, infratuzilmaviy ta'minlanganligi va resurslardan foydalanish samaradorligining o'zaro muvozanatini nazarda tutadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish, mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi mavqeini mustahkamlash, ichki turizmni faollashtirish, turizm infratuzilmasini kengaytirish va hududlarning turistik imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada turistik oqimlar, turizmga xos xizmatlar ishlab chiqarish, joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari hamda turizm infratuzilmasi ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Biroq turizm sohasidagi miqdoriy o'sishning o'zi uning barqaror rivojlanishini to'liq tavsiflamaydi. Shu sababli sohada yuz berayotgan tendensiyalarni tarkibiy jihatdan baholash, o'sishning asosiy manbalarini aniqlash, turizm faoliyatining hududlar va xizmat turlari bo'yicha shakllanayotgan nisbatlarini tadqiq etish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasining barqaror rivojlanishi, uning asosiy tendensiyalari va tarkibiy o'zgarishlarini tadqiq etish masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida turli metodologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlabki tadqiqotlarda turizmning iqtisodiy samarasi, turistlar oqimi, daromad va bandlikni oshirish imkoniyatlariga ustuvor ahamiyat berilgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda iqtisodiy o'sishni ijtimoiy, ekologik, institutsional va hududiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish masalalari markaziy o'ringa chiqmoqda. Shu jihatdan, turizmning barqaror rivojlanishi oddiy miqdoriy o'sish emas, balki sohaning tarkibiy nisbatlari va sifat ko'rsatkichlarining uzoq muddatli muvozanatli o'zgarishini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida qaralmoqda.

Turizmning barqaror rivojlanishi konsepsiyasining shakllanishida World Tourism Organization (UN Tourism) tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Tashkilot turizmning barqarorligini iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirlarni kompleks hisobga olish, turistlar, turizm industriyasi, atrof-muhit hamda qabul qiluvchi hudud aholisi manfaatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'laydi. Mazkur yondashuv barqaror turizmni alohida turizm turi emas, balki turizmni rivojlantirish va boshqarishning umumiy tamoyili sifatida tushunish zarurligini ko'rsatadi.

R. Sharpley tadqiqotlarida barqaror turizm konsepsiyasi barqaror rivojlanish nazariyasi bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Olimning yondashuvida turizm rivojlanishining iqtisodiy natijalarini ekologik va ijtimoiy manfaatlardan ajratilgan holda baholash barqarorlik mohiyatini to'liq ochib bera olmasligi ta'kidlanadi. Shu sababli turizmning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda iqtisodiy samaradorlik, resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy aholi manfaatlari o'rtasidagi muvozanat alohida ahamiyat kasb etadi.

B. Bramwell va B. Lane barqaror turizmni boshqarish muammolarini tadqiq etib, uning samaradorligi manfaatdor tomonlarning o'zaro hamkorligi, institutsional boshqaruv va uzoq muddatli strategik rejalashtirish bilan bevosita bog'liqligini asoslaydi. Ularning yondashuvi turizm sohasidagi tarkibiy o'zgarishlarni faqat bozor mexanizmlarining natijasi sifatida emas, balki davlat, biznes, mahalliy hamjamiyat va boshqa manfaatdor tomonlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan jarayon sifatida baholash imkonini beradi.

C. Michael Hallning ilmiy tadqiqotlarida esa turizmning barqaror rivojlanishi davlat siyosati, rejalashtirish va institutsional boshqaruv bilan chambarchas bog'lanadi. Uning fikricha, turizmni rivojlantirish jarayonida bozor mexanizmlarining o'zi resurslardan samarali va barqaror foydalanishni to'liq ta'minlay olmaydi. Shu sababli davlatning strategik rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tartibga solish va monitoring funksiyalari turizm tizimining uzoq muddatli rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

J. Saarinen barqaror turizm konsepsiyasiga nisbatan turli ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirib, barqarorlikning turizmga asoslangan, resurslarga asoslangan va mahalliy hamjamiyat manfaatlariga asoslangan talqinlarini ajratib ko'rsatadi. Mazkur yondashuv turizm sohasidagi tarkibiy o'zgarishlarni baholashda yagona universal ko'rsatkichdan foydalanish yetarli emasligini, aksincha, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va hududiy indikatorlarni o'zaro bog'liq holda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

G. Crouch va J.R.B. Ritchie turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligi va barqarorligi o'rtasidagi aloqadorlikni tadqiq etib, turizmning uzoq muddatli rivojlanishi mavjud turistik resurslarning o'zigagina emas, balki ularni boshqarish sifati, infratuzilma, xizmatlar tizimi, davlat siyosati va destinatsiyaning tashkiliy imkoniyatlariga ham bog'liq ekanligini asoslaydi. Bu yondashuv turizm rivojlanishining tarkibiy o'zgarishlarini infratuzilma va institutsional transformatsiyalar bilan birgalikda baholash uchun metodologik ahamiyatga ega.



So'nggi xalqaro metodologiyada turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini o'lchashda Tourism Satellite Account (TSA) alohida ahamiyat kasb etmoqda. UN Tourism turizmning iqtisodiy hissasini boshqa tarmoqlar bilan qiyoslanadigan shaklda o'lchash uchun TSAni asosiy statistik mexanizmlardan biri sifatida belgilaydi. Bunda turizmga xos mahsulotlar ishlab chiqarish, turistik iste'mol, turizm tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymat va boshqa tarkibiy ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liq tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, statistik guruhlash, tarkibiy tahlil, indeks usuli, taqqoslash, umumlashtirish hamda grafik tahlil usullaridan foydalaniladi. Turizm sohasi barqaror rivojlanishidagi o'zgarishlarni aniqlashda ko'rsatkichlarning bazis va zanjirsimon o'sish sur'atlari, tarkibiy ulushlari hamda alohida turistik faoliyat turlarining umumiy rivojlanishdagi o'zni baholanadi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasining turizm sohasiga oid rasmiy statistik ma'lumotlari, turizm yordamchi hisobi ko'rsatkichlari, vakolatli davlat organlarining ma'lumotlari hamda turizmning barqaror rivojlanishiga oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi so'nggi yillarda nafaqat miqdoriy o'sish, balki turistik oqimlar, turizmga xos xizmatlar, joylashtirish va ovqatlanish faoliyati, infratuzilmaviy ta'minot hamda hududiy turistik ixtisoslashuvdagi tarkibiy siljishlar bilan tavsiflanmoqda. Mazkur jarayonlarni barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan baholashda turizm sohasidagi mutlaq ko'rsatkichlarning o'sishini aniqlashning o'zi yetarli emas. Bunda o'sishning barqarorligi, uning tarkibiy manbalari, turistik faoliyat turlari o'rtasidagi nisbatlarning o'zgarishi hamda yaratilayotgan iqtisodiy natijaning sifat xususiyatlarini birgalikda tadqiq etish talab etiladi.

Turizm sohasi rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash maqsadida dastlab mamlakatda turizmga xos mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish dinamikasini baholash maqsadga muvofiq. Rasmiy statistik ma'lumotlar O'zbekistonda turizm bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat hajmining uzoq muddatli davrda sezilarli darajada kengayganligini ko'rsatmoqda (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda turizm tarmoqlarida ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari, 2020-2025-yillar, trln. so'm

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.	2025/2020, %
Iste'mol mahsulotlari	33,16	45,43	60,36	76,40	104,77	127,80	3,8 marta
Odatiy turistik mahsulotlar	33,09	45,34	60,23	76,13	104,60	127,50	3,8 marta
Joylashtirish xizmatlari	3,29	4,77	6,43	8,23	10,60	12,80	3,9 marta
Umumiy ovqatlanish xizmatlari	3,89	6,43	9,84	14,37	19,68	23,90	6,1 marta
Temir yo'l yo'lovchi transporti	0,19	0,21	0,24	0,35	0,78	0,95	4,9 marta
Quruqlikdagi yo'lovchi transporti	19,31	24,01	23,85	28,80	41,30	49,50	2,6 marta
Havo yo'li yo'lovchi transporti	2,46	5,15	11,14	14,81	18,28	22,50	9,1 marta
Turagentlik va bronlash xizmatlari	0,16	0,31	0,47	1,38	2,31	3,30	20,4 marta
Ishlab chiqarishning umumiy hajmi	88,70	122,26	174,44	228,45	286,68	348,50	3,9 marta
Yalpi qo'shilgan qiymat	46,92	64,20	90,26	113,17	141,69	171,50	3,6 marta

1-jadval ma'lumotlari 2020–2025-yillarda O'zbekistonda turizm tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmining jadal kengayishi bilan bir qatorda, uning umumiy sifat va miqdorida o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan turizm sohalarida ishlab chiqarishning umumiy hajmi 88,70 trln so'mdan 348,50 trln so'mga yetib, 3,9 martaga, yalpi qo'shilgan qiymat esa 46,92 trln so'mdan 171,50 trln so'mga ko'paygan. Bu tendensiya turizmning nafaqat xizmat turi, balki transport, oziq-ovqat, umumiy ovqatlanish va boshqa tarmoqlarni yagona iqtisodiy zanjirga birlashtiruvchi tarmoqlararo kompleks sifatidagi ahamiyati kuchayib borayotganligini ifodalaydi. Shu bilan birga, 2020-yil pandemiya ta'sirida turizm faolligi keskin pasaygan davr bo'lganligi sababli 2025/2020 nisbatlarining yuqori darajasini baholashda past baza effektini hisobga olish kerak. Buning uchun ushbu ko'rsatkichlarni faqat samaradorlikning oshishi sifatida emas, balki pandemiyadan keyingi tiklanish va keyingi iqtisodiy kengayish jarayonlarining natijasi sifatida ham baholash mumkin.



Turizm tarmoqlarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2020-yildagi 33,16 trln so'mdan 2025-yilda 127,80 trln so'mga yetib, 3,8 martaga oshgan. Odatiy turistik mahsulot hajmi ham mos ravishda 33,09 trln so'mdan 127,50 trln so'mga ko'payib, 3,8 martalik o'sishni namoyon etgan. Ushbu ikki ko'rsatkich dinamikasining o'zaro yaqinligi turizm sanoatida ishlab chiqarilayotgan iste'mol mahsulotlari tarkibida turizmga xos mahsulotlarning yuqori ulushi saqlanayotganligini ko'rsatadi. 2021–2025-yillarda ushbu ko'rsatkichlarning uzluksiz o'sib borishi esa turistik talabning tiklanishi bilan birga turizm xizmatlari taklifining ham kengayganligini ifodalaydi.

Turizm infratuzilmasining ishlab chiqarish bo'g'inlaridan biri bo'lgan joylashtirish xizmatlari hajmi 2020-yildagi 3,29 trln so'mdan 2025-yilda 12,80 trln so'mga yetib, 3,9 martaga ko'paygan. E'tiborlisi, ushbu segmentda 2020-yildan keyingi barcha yillar davomida o'sish kuzatilgan: 2021-yilda 4,77 trln so'm, 2022-yilda 6,43 trln so'm va 2023-yilda 8,23 trln so'm. Ushbu dinamika joylashtirish xizmatlariga talabning kengayishi hamda turizm infratuzilmasining iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

Tahlil qilinayotgan davrdagi eng muhim siljishlardan biri umumiy ovqatlanish xizmatlarida yuz bergan. Ushbu xizmatlar hajmi 3,89 trln so'mdan 23,90 trln so'mga yetib, 6,1 martaga oshgan. Joylashtirish xizmatlaridagi 3,9 martalik o'sishga nisbatan umumiy ovqatlanish xizmatlarining tezroq kengayishi turizm qiymat zanjirida gastronomik xizmatlarning iqtisodiy roli ortib borayotganligini ko'rsatadi. Bu holat turistik mahsulot tarkibining diversifikatsiyalashuvi, turistlar xarajatlarining turli xizmatlarga taqsimlanishi hamda umumiy ovqatlanish va unga yondosh turizm tadbirkorliklariga multiplikativ ta'sir kuchayayotganini anglatadi.

Transport xizmatlari bo'yicha tahlil esa turizm tarkibidagi o'zgarishlar bir xil sur'atda kechmaganligini ko'rsatadi. Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari hajmi 2020-yildagi 0,19 trln so'mdan 2025-yilda 0,95 trln so'mga yetib, 4,9 martaga oshgan. Quruqlikdagi yo'lovchi transporti hajmi esa 19,31 trln so'mdan 49,50 trln so'mga ko'payib, 2,6 martalik o'sishni qayd etgan. Shu bilan birga, quruqlik transportida 2021-yildagi 24,01 trln so'mlik ko'rsatkichning 2022-yilda 23,85 trln so'mgacha qisqarishi ushbu segmentda ayrim davriy tebranishlar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. 2023-yildan keyin yana o'sish tendensiyasi shakllangan.

Havo yo'li yo'lovchi transporti xizmatlarida ancha yuqori dinamika kuzatilgan. Uning hajmi 2020-yildagi 2,46 trln so'mdan 2025-yilda 22,50 trln so'mga yetib, 9,1 martaga oshgan. 2021–2022-yillarda 5,15 trln so'mdan 11,14 trln so'mgacha keskin ko'tarilishi, keyingi yillarda esa 14,81; 18,28 va 22,50 trln so'mgacha izchil oshib borishi turistik mobillikning faollashuvi bilan bog'liq o'zgarishlarni ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichda ham 2020-yilgi past bazaning ta'siri yuqori bo'lganligi sababli 9,1 martalik o'sishni uzoq muddatli normal o'sish sur'ati sifatida to'g'ridan-to'g'ri talqin qilish mumkin emas.

Jadvalda eng yuqori nisbiy o'sish turagentlik va bronlash xizmatlarida kuzatilgan. Ushbu xizmatlar hajmi 2020-yildagi 0,16 trln so'mdan 2025-yilda 3,30 trln so'mga yetib, 20,4 martaga ko'paygan. Xususan, 2022-yildagi 0,47 trln so'mdan 2023-yilda 1,38 trln so'mga, 2024-yilda esa 2,31 trln so'mga yetishi turistik xizmatlarni tashkil etish, sotish va bronlash tizimida jadal transformatsiya kechayotganini ko'rsatadi. Ushbu tendensiya turizm bozorida vositachilik xizmatlarining faollashuvi, turpaketlar taklifining kengayishi hamda bronlash va xizmatlarni realizatsiya qilish kanallarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, turagentlik va bronlash segmentidagi yuqori dinamika turizm xizmatlarining tashkiliy va raqamli transformatsiyasining muhim belgilaridan biri sifatida baholanishi mumkin (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistonda mamlakat ichida turizm iste'molining dinamikasi, 2020-2025-yillar mlrd.so'm

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2025/2020, %
Iste'mol mahsulotlari	8719,4	16584,3	32015,1	39643,7	74317,6	91000,0	10,4 marta
Odatiy turistik mahsulotlar	5102,2	14180,2	28910,9	31655,3	44222,6	54500,0	10,7 marta
Joylashtirish xizmatlari	594,3	1900,5	5173,0	5664,6	9371,4	11500,0	19,3 marta
Umumiy ovqatlanish xizmatlari	2278,2	7654,7	12541,9	12947,4	12775,0	15000,0	6,6 marta
Temir yo'l transporti	56,3	139,5	310,7	451,9	1054,2	1300,0	23,1 marta
Quruqlikdagi yo'lovchi transporti	978,1	2275,7	4316,6	3003,2	5169,0	6300,0	6,4 marta
Havo yo'li yo'lovchi transporti	1012,9	1832,7	5065,6	6903,3	9027,8	11200,0	11,1 marta
Turagentlik va bronlash xizmatlari	81,6	151,4	378,8	1354,6	2366,6	3300,0	40,4 marta
Madaniyat xizmatlari	24,9	59,6	909,3	1042,9	2803,2	3500,0	140,5 marta
Sport va dam olish xizmatlari	35,6	89,5	215,0	287,4	1655,4	2100,0	58,9 marta




2-jadval ma'lumotlari 2020–2025-yillarda O'zbekistonda turizm iste'molida yuqori o'sish sur'atlari bilan bir qatorda, uning tarkibida ham o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatadi. Iste'mol mahsulotlari hajmi 8 719,4 mlrd so'mdan 91 000,0 mlrd so'mga yetib, 10,4 martaga, turistik mahsulot hajmi esa 5 102,2 mlrd so'mdan 54 500,0 mlrd so'mga yetib, 10,7 martaga ko'paygan. Bunda 2020-yilda pandemiya ta'sirida shakllangan past baza tufayli yuqori o'sish sur'atlarini turistik faollikning tiklanishi va keyingi faol kengayish jarayonlari bilan bog'liq holda baholash lozim.

Turizm iste'moli tarkibida joylashtirish xizmatlari 594,3 mlrd so'mdan [qiymat aniqlashtirilishi kerak] mlrd so'mga, umumiy ovqatlanish xizmatlari esa 2 278,2 mlrd so'mdan 15 000,0 mlrd so'mga yetib, 6,6 martaga oshgan. Shu bilan birga, umumiy ovqatlanish xizmatlarida 2022–2024-yillarda o'sish sur'atining sekinlashishi, 2023-yildagi 12 947,4 mlrd so'mdan 2024-yilda 12 775,0 mlrd so'mgacha qisqarishi ushbu segment rivojlanishida ma'lum tebranishlar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Transport xizmatlarida ham jiddiy siljishlar kuzatilgan. Temir yo'l transporti xizmatlari 23,1 martaga, havo yo'li yo'lovchi transporti 11,1 martaga, quruqlikdagi yo'lovchi transporti esa 6,4 martaga oshgan. Havo va temir yo'l transportining quruqlik transportiga nisbatan yuqori sur'atlarda rivojlanganligi turistik mobillikda tez va uzoq masofali transport xizmatlarining ahamiyati ortayotganligini ko'rsatadi.

Eng yuqori nisbiy o'sish madaniyat, sport va dam olish hamda turagentlik va bronlash xizmatlarida kuzatilgan. Turagentlik va bronlash xizmatlari 81,6 mlrd so'mdan 3 300,0 mlrd so'mga yetib, 40,4 martaga, sport va dam olish xizmatlari 35,6 mlrd so'mdan 2 100,0 mlrd so'mga yetib, 58,9 martaga oshgan. Madaniyat xizmatlari bo'yicha ko'rsatkich 140,5 martaga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkichlar turizm iste'moli tarkibining an'anaviy oziq-ovqat va transport xizmatlaridan tashqari madaniy, rekreatsion va tashkiliy-raqamli yo'nalishlar tomon diversifikatsiyalashayotganini ifodalaydi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari hajmining o'zgarishi

Rasm ma'lumotlari 2020–2025-yillarda O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari hajmi yuqori sur'atlarda o'sib borganligini ko'rsatadi. Oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 2020-yildagi 52 354,6 mlrd so'mdan 2025-yilda 226 958,8 mlrd so'mga yetib, tahlil qilinayotgan davrda 4,3 baravarga oshgan. Mutlaq hisobda uning hajmi 174 604,2 mlrd so'mga ko'paygan. Dinamik tahlilga ko'ra, ko'rsatkich 2021-yilda 69 594,0 mlrd so'mni, 2022-yilda 95 673,8 mlrd so'mni, 2023-yilda 125 353,7 mlrd so'mni, 2024-yilda 169 641,0 mlrd so'mni va 2025-yilda 226 958,8 mlrd so'mni tashkil etgan. Tegishli ravishda, 2023–2025-yillarda mutlaq o'sish jadallashgan: 2024-yilda oldingi yilga nisbatan 44 287,3 mlrd so'm, 2025-yilda esa yana 57 317,8 mlrd so'mga oshgan. Bu oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy ko'lami kengayib borayotganligini ko'rsatadi.

Ushbu tendensiyaning turizm sohasi rivojlanishi nuqtayi nazaridan baholaganda, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarining jadal kengayishi turistik infratuzilma, mehmondo'stlik industriyasi va unga bog'liq tarmoqlar rivojlanayotganini ifodalovchi iqtisodiy indikator sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yo'nalishning kengayishi turistlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini oshirish, turistik resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish, bandlik va tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish uchun iqtisodiy zamin yaratadi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichni to'liq turizm xizmatlari sifatida talqin qilish metodologik jihatdan to'g'ri emas,



chunki oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlaridan aholi ham foydalanadi. Shu sababli ushbu ko'rsatkichni tahlil qilishda uni ichki turistlar soni, tunab qolishlar soni, turizm obyektlarining bandlik darajasi hamda turistlarning o'rtacha xarajatlari bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiq (2-rasm).



2-rasm. 2025-yilda O'zbekistonga turistik maqsadlarda kelgan xorijiy fuqarolarning safar maqsadlari bo'yicha tarkibi

Rasm ma'lumotlari turistik tashriflarning safar maqsadlari bo'yicha tarkibida sezilarli nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, tashriflarning asosiy qismi — 67,3 foizi qarindoshlarni yo'qlash, 16,5 foizi dam olish va hordiq chiqarish, 11,3 foizi xizmat safari hamda 4,9 foizi boshqa maqsadlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Demak, qarindoshlarni yo'qlash maqsadidagi tashriflar qolgan barcha yo'nalishlarning jami ulushidan ham 34,6 foiz punktga yuqori bo'lib, turistik oqim tarkibida yetakchi o'rinni egallaydi. Dam olish va hordiq chiqarish maqsadidagi tashriflarning 16,5 foizlik ulushi mamlakatning rekreatsion, tarixiy-madaniy va boshqa turistik resurslaridan foydalanish uchun muayyan talab shakllanganligini ko'rsatsa-da, ushbu segmentni mavjud salohiyatga nisbatan yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud. Xizmat safarlarining 11,3 foizni tashkil etishi esa biznes turizmi, konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa ishbilarmonlik tadbirlari bilan bog'liq turistik xizmatlarni rivojlantirish uchun iqtisodiy zamin mavjudligini ko'rsatadi. Barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan diagrammadagi eng muhim jihat — turistik oqimlarning bitta tashrif maqsadida yuqori darajada konsentratsiyalashganidir. Qarindoshlarni yo'qlash turizmi turistik oqimlarning barqarorligini qo'llab-quvvatlashi mumkin, biroq uning iqtisodiy samarasi turistlarning qolish davomiyligi, joylashtirish vositalaridan foydalanishi va safar davomida amalga oshiradigan xarajatlarga bog'liq. Shu sababli turistlar sonining o'sishi har doim ham turizm daromadlarining mutanosib ravishda oshishini anglatmaydi. Shundan kelib chiqib, davlat tomonidan turizmni tartibga solish siyosatida turistik oqimlarning miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda ularning maqsadlar bo'yicha diversifikatsiyalashuviga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Xususan, dam olish, madaniy, ekologik, gastronomik, ziyorat va ishbilarmonlik turizmi segmentlarini rivojlantirish turistlarning mamlakatda qolish muddatini uzaytirish, bir turistga to'g'ri keladigan xarajatlarni oshirish va turizmning iqtisodiy samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar O'zbekistonda 2020–2025-yillarda turizm sohasi rivojlanishida miqdoriy o'sish bilan bir qatorda sezilarli tarkibiy transformatsiyalar yuz berganligini ko'rsatdi. Turizm tarmoqlarida ishlab chiqarishning umumiy hajmi 88,70 trln so'mdan 348,50 trln so'mga yetib, 3,9 martaga, yalpi qo'shilgan qiymat esa 46,92 trln so'mdan 171,50 trln so'mga yetib, 3,6 martaga ko'paygan. Joylashtirish, umumiy ovqatlanish, havo transporti, turagentlik va bronlash xizmatlarining jadal rivojlanishi turizm mahsuloti tarkibining diversifikatsiyalashuvi hamda xizmatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayib borayotganini ko'rsatadi.



Mamlakat ichidagi turizm iste'moli tarkibida ham muhim sifat o'zgarishlari kuzatilgan. Jumladan, 2020–2025-yillarda iste'mol mahsulotlari hajmi 10,4 marta, odatiy turistik mahsulotlar 10,7 marta, joylashtirish xizmatlari 19,3 marta oshgan. Ayniqsa, turagentlik va bronlash, sport va dam olish hamda madaniyat xizmatlarining yuqori sur'atlarda kengayishi turistik talabning an'anaviy xizmatlardan madaniy, rekreatsion va tashkiliy-raqamli xizmatlar tomon siljiyotganini ko'rsatadi. Biroq 2020-yil pandemiya davridagi past baza bo'lganligi sababli mazkur o'sish ko'rsatkichlarini baholashda tiklanish effektini ham hisobga olish zarur.

Joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari hajmining 2020-yildagi 52,35 trln so'mdan 2025-yilda 226,96 trln so'mga yetib, 4,3 martaga oshgani mehmondo'stlik industriyasining iqtisodiy salohiyati kengayib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, turistik tashriflar tarkibida qarindoshlarni yo'qlash maqsadining 67,3 foizlik yuqori ulushi saqlanib qolayotgani turistik oqimlarni maqsadlar bo'yicha diversifikatsiyalash zarurligini ko'rsatadi. Dam olish va hordiq chiqarishning 16,5 foizlik, xizmat safarlarining 11,3 foizlik ulushi ushbu segmentlarni yanada rivojlantirish uchun foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda turizm sohasi barqaror rivojlanishining 2020–2025-yillardagi asosiy tendensiyasini "pandemiyadan keyingi tiklanish → miqdoriy kengayish → xizmatlar diversifikatsiyasi → tarkibiy transformatsiya" ketma-ketligida ifodalash mumkin. Biroq ishlab chiqarish umumiy hajmida yalpi qo'shilgan qiymat ulushining 2020-yildagi 52,9 foizdan 2025-yilda 49,2 foizgacha pasayishi turizmning miqdoriy o'sishini yuqori iqtisodiy samaradorlikka aylantirish masalasi dolzarbligicha qolayotganligini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, turizmni davlat tomonidan tartibga solishning keyingi bosqichida turistlar sonini ko'paytirishga yo'naltirilgan miqdoriy modeldan yuqori qo'shilgan qiymat, turistik oqimlar diversifikatsiyasi, turistlarning qolish davomiyligi va xarajatlarini oshirish, hududiy mutanosiblik hamda xizmatlar sifatiga asoslangan barqaror rivojlanish modeliga o'tish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, madaniy, rekreatsion, gastronomik, ishbilarmonlik va boshqa yuqori iqtisodiy samara yaratuvchi turizm yo'nalishlarini rag'batlantirish, raqamli turistik xizmatlarni kengaytirish hamda hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilanishi lozim.

Umuman, olingan natijalar turizm sohasining barqaror rivojlanishini baholashda faqat turistik oqim va xizmatlar hajmining o'sishiga emas, balki tarkibiy mutanosiblik, diversifikatsiya va yaratilayotgan qo'shilgan qiymat samaradorligiga ham tayanish zarurligini asoslaydi. Mazkur yondashuv turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining natijadorligini oshirish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4428097?ONDATE=14.05.2024>
- Sharpley R. Tourism and Sustainable Development: Exploring the Theoretical Divide // Journal of Sustainable Tourism. – 2000. – Vol. 8, No. 1. – P. 1–19.
- Bramwell B., Lane B. Sustainable Tourism: An Evolving Global Approach // Journal of Sustainable Tourism. – 1993. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–5.
- Hall C.M. Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships. – Harlow: Pearson Education, 2008.
- Saarienen J. Traditions of Sustainability in Tourism Studies // Annals of Tourism Research. – 2006. – Vol. 33, No. 4. – P. 1121–1140.
- Ritchie J.R.B., Crouch G.I. The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. – Wallingford: CABI Publishing, 2003.
- United Nations, UN Tourism. Statistical Framework for Measuring the Sustainability of Tourism (SF-MST). – New York–Madrid, 2024.
- United Nations World Tourism Organization. International Recommendations for Tourism Statistics 2008. – New York: United Nations, 2010.
- United Nations World Tourism Organization. Tourism Satellite Account: Recommended Methodological Framework 2008. – Luxembourg–Madrid–New York–Paris, 2010.
- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Turizm tarmog'i va boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarish hisobi (turizm tarmoqlari). – SIAT axborot tizimi, 2019–2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>